HOFIZ SHEROZIY VA HOFIZ XORAZMIY SHE'RIYATIDA LISONIY XUSUSIYATLAR VA BADIIY TIL UYG'UNLIGI

F.G'.Otajonova[1]

1. PhD, UrDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi https://

Mas'ul muallif: Otajonova Farog'at G'afurjonovna, PhD, UrDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi https://.

e-mail: otajonova.f@urdu.uz

Received: 25 Oktabr 2026
Accepted: 30 Oktabr 2026
Published: 04 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Otajonova, F. G. HOFIZ SHEROZIY VA HOFIZ XORAZMIY SHE'RIYATIDA LISONIY XUSUSIYATLAR VA BADIIY TIL UYG'UNLIGI / F. G. Otajonova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 34–36.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hofiz Sheroziy va Hofiz Xorazmiy ijodining qiyosiy-lisoniy tahlili yoritilgan. Tadqiqotda ikki shoir poetik tilidagi umumiy estetik motivlar, polisemiya, iyhom san'ati, turkiy tilning grammatik imkoniyatlari hamda forsiy-arabiy o'zlashma qatlamning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Hofiz Sheroziy, Hofiz Xorazmiy, mumtoz adabiyot, qiyosiy-lisoniy tahlil, chig'atoy tili, polisemiya, ihom.

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ГАРМОНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ЯЗЫКА В ПОЭЗИИ ХАФИЗА ШИРАЗИ И ХАФИЗА ХОРЕЗМИ

Аннотация. В данной статье представлен сравнительно-лингвистический анализ творчества Хафиза Ширази и Хафиза Хорезми. В исследовании раскрыты общие эстетические мотивы их поэтического языка, роль полисемии, искусства ихом, грамматические особенности тюркского языка и процессы интеграции заимствований

Ключевые слова: Хафиз Ширази, Хафиз Хорезми, классическая литература, сравнительно-лингвистический анализ, чагатайский язык, полисемия, ихом.

LINGUISTIC FEATURES AND THE HARMONY OF LITERARY LANGUAGE IN THE POETRY OF HAFIZ SHIRAZI AND HAFIZ KHOREZMI

Abstract. This article provides a comparative-linguistic analysis of the works of Hafez of Shiraz and Hafez Khorezmi. The study highlights the common aesthetic motifs in their poetic language, the role of polysemy, the art of ihom, the grammatical features of the Turkic language, and the integration of loanwords.

Keywords: Hafez of Shiraz, Hafez Khorezmi, classical literature, comparative-linguistic analysis, Chagatai language, polysemy, ihom.

Kirish. O'rta asr Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, fors-tojik va turkiy (chig'atoy) adabiyoti o'zaro uzviy aloqada rivojlanib, umumiy tasavvufiy-falsafiy va badiiy-estetik tamoyillarga tayangan. Bu jarayonda XV asr adabiy muhitida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan Hofiz Sheroziyning forsiy g'azallari butun Sharqda shuhrat qozongan bo'lsa, Hofiz Xorazmiy o'zbek (chig'atoy) mumtoz she'riyatining ilk yirik namoyandalaridan biri sifatida ana shu an'analarni ona tilida davom ettirgan ijodkor sanaladi.

Nazariy tadqiqotlar. Mumtoz poetikani qiyosiy-lisoniy o'rganish va ikki turli til oilasiga mansub she'riyat matnlarini tahlil qilish lingvopoetika, matn tilshunosligi hamda qiyosiy adabiyotshunoslikning nazariy-metodologik tamoyillariga tayanadi. Sharq mumtoz adabiyotida shakl va mazmun birligi lisoniy vositalar va badiiy san'atlar (badi' ilmi) o'rtasidagi izchil mutanosiblik orqali namoyon bo'ladi.

Lingvopoetik yondashuv va semantik qatlamlar: Badiiy matn tahlilida lingvopoetik usul so'zning poetik vazifasini, uning lingvistik imkoniyatlari va uslubiy bo'yog'ini ochib berishga xizmat qiladi. Fors-tojik (flektiv-analitik unsurlarga ega) va turkiy (agglyutinativ) tillarning lisoniy qurilishi farqlanishiga qaramay, mumtoz she'riyatda polisemiya (ko'p ma'nolilik) va iyhom (tasavvufiy va real-maishiy ma'nolar talqini) san'atlari matnning ko'p qatlamli semantik strukturasini belgilaydi. Nazariy jihatdan so'zning birinchi (denotativ) va ikkinchi (konnotativ/ramziy) ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlik matn shakllanishida lingvistik vosita vazifasini o'taydi.

Lisoniy interferensiya va poetik sintaksis: Ikki madaniyat va til birliklarining tutashuvida leksik-semantik interferensiya hodisasi muhim o'rin tutadi. XV asr Chig'atoy (eski o'zbek) adabiy tili fors-tojik va arab tili leksikasini o'zlashtirish va uni turkiy grammatik qoliplarga (qo'shimchalar va fe'l sistemasi) moslashtirish bosqichida edi. Nazariy manbalarda ta'kidlanganidek, turkiy she'riyatda forsiy izofa va birikmalarning turkiy kelishik hamda sintaktik qurilmalar orqali berilishi tilning plastik imkoniyatlari va adaptatsiya darajasini ko'rsatadi.

O'lchov va poetik muvofiqlik (Aruz nazariyasi): Forsiy va turkiy mumtoz she'riyatning nazariy asoslaridan biri Aruz vazni qonuniyatlaridir. Turkiy tillarning fonetik va morfologik tuzilishi aruzning tayanch unsurlari bo'lmish "sabab", "vatad" va "fasilat"

o‘lchovlariga moslashuvida o‘ziga xos lisoniy o‘zgarishlarni (masalan, unli tovushlar cho‘ziqligi va qisqaligi, arxaik kelishik shakllarining qo‘llanishi) talab etgan. Shu sababli, Hofiz Sheroziy va Hofiz Xorazmiy poetikasini nazariy o‘rganishda vazn va grammatik shakllarning sinxron hamda diaxron muvofiqligi asosiy nazariy mezon hisoblanadi.

Tajribaviy izlanishlar. Ikki shoir g‘azaliyotining qiyosiy-lisoniy tahlili forsiy va turkiy badiiy matnlarning ichki strukturasi va lisoniy birliklarining qo‘llanish xususiyatlarini aniq statistik va matniy dalillar orqali ko‘rsatadi. Hofiz Sheroziy leksikasida arabiy qatlam (ishq, aql, fano, baqo, zudh) asosan iyhom va tasavvufiy ramzlar yaratishga xizmat qiladi. Hofiz Xorazmiy esa arabiy va forsiy leksikani turkiy tilning grammatik qoliplariga moslashtirib, leksik interferensiyaning yuqori darajasini namoyon etadi. Shoirlar ijodining qiyosiy-lisoniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning poetik tilida o‘xshash umumiy g‘oyaviy-estetik motivlar bilan birga, har bir tilning o‘ziga xos grammatik, fonetik va leksik xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Mumtoz she’riyatda shakl va mazmun birligi lisoniy vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham Hofiz Sheroziy va Hofiz Xorazmiy poetikasini qiyosiy o‘rganish ikki tildagi badiiy-estetik tafakkurning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

1. Hofiz Sheroziy she’riyatida lisoniy sathdagi polisemiya. Hofiz Sheroziy tili fors-tojik adabiy tilining mumtoz davri me’yorlarini to‘la namoyon etadi. Uning lisoniy mahorati so‘zlarning nozik semantik qirralarini ochib berishda, badiiy san’atlar (xususan, mubolag‘a, iyhom, tashbeh)ni til vositalari orqali tabiiy singdirishda ko‘rinadi. Hofiz Sheroziy she’riyatida lisoniy birliklar ikki qatlamga bo‘linadi: birinchisi, kundalik jonli xalq tiliga yaqin sodir va ravon ifodalar; ikkinchisi, mumtoz adabiyotning falsafiy-tasavvufiy terminologiyasi (may, soqiy, mayxona, rind, dard kabilar). Shoir tilining asosiy xususiyatlaridan biri - polisemiyadan (ko‘p ma’nolilikdan) ustalik bilan foydalanishidir. Uning g‘azallaridagi har bir so‘z ham real-maishiy, ham ramziy-tasavvufiy ma’noni ifodalashga xizmat qiladi, bu esa matnning lisoniy sathida chuqur qatlamli ma’no hosil qiladi.

Hofiz Sheroziy tili uchun xos bo‘lgan eng asosiy xususiyat - so‘zlarning ham ijtimoiy-maishiy, ham yashirin tasavvufiy-falsafiy ma’noda kelishi (iyhom san’ati) hisoblanadi.

Agar on turki Sheroziy badast orad dili moro,

Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo.

(Ma’nosi: Agar u sheroziy turk dilimizni qo‘lga kiritsa, uning yuzidagi xoliga Samarqand va Buxoroni baxshida etaman). Bu baytdagi “turk” so‘zi tashqi qarashda millatni yoki go‘zalni bildirsa (ijtimoiy-maishiy qatlam), tasavvufda ilohiy go‘zallik timsoli hisoblanadi. Shuningdek, “xol” va “Samarqandu Buxoro” so‘zlari ham oddiy tana a’zosi yoki shaharlar ma’nosidan tashqari, botiniy olam ramzlari sifatida qo‘llanib, shoir tilining semantik salohiyatini kengaytirgan. Qayd etish joizki, ushbu mashhur misra keyingi davr shoirlari tomonidan ham ijodiy o‘zlashtirilib, badiiy til xazinasining umumiy mulkiga aylangan.

2. Hofiz Xorazmiy ijodida turkiy tilning grammatik imkoniyatlari

Hofiz Xorazmiy ijodida turkiy (chig‘atoy) tilining boy leksik va grammatik imkoniyatlari mumtoz poetika talablari bilan uyg‘unlashadi. Hofiz Xorazmiy Hofiz Sheroziy va boshqa forsiy shoirlarning an’analarini o‘zbek tiliga ko‘chirishda lisoniy ekvivalentlik masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Uning tili o‘sha davr xorazm shevalari va umumiy chig‘atoy adabiy tilining qorishmasidan iborat bo‘lib, o‘ziga xos arxaizmlar va mahalliy so‘z qo‘llash xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Hofiz Xorazmiy she’riyatida qarama-qarshi ma’noli so‘zlarga o‘z leksik ma’nolariga nisbat ham katta ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy-falsafiy “vazifa” yuklangan. Masalan, shoir she’riyatida yosh va qari tushunchalari biologik jihatdan ko‘ra ijtimoiy-axloqiy jihatni nazarda tutadi:

Quliman ul javonningkim, aning ishqi bila bo‘lsa

Ochilg‘an toza gul yangling‘ shikasta pirlar barno. (10-g‘.)

Baytda javon//barno so‘zlari orqali mutarodif va javon//barno – pir birliklari orqali mutazod hosil qilingan.

Shuningdek,

Tariqi ishqg‘a barno qachonkim tushsa bo‘lur pir,

Muhabbat turfa javhardur ham aylar pirni barno. (11-g‘.)

Mazmuni: “Ishq yo‘liga tushgan yosh odam qariga aylanadi. (Shu bilan birga) muhabbat qarini ham yosh qiladigan bir ajib javhardir”.

Shu g‘azalning (10-g‘azalning) keyingi baytida tazodning chiroyli namunasini uchratamiz:

Aning qaddig‘a qul erur chamanda sarvi ozoda,

Aning yuziga jon berur gulistonda guli ra’no. (10-g‘.)

Baytda ijtimoiy-siyosiy termin sanalgan qul va ozod(a) so‘zlariga hissiy buyoq berilgan. Shu bilan birgalikda ra’no sifati bilan jon bermoq iboralari o‘rtasida ma’no ziddiyati yuzaga kelgan. Albatta, fe’l bilan sifat antonimlik munosabatiga kirishmaydi. Lekin biror narsa va shaxs xarakterida ziddiyatni ochib berish ham tazod hosil qila oladi. Masalan, holiga maymunlar yig‘laydi iborasi aynan ana shu tazod asosida yuzaga kelgan. Chunki bunda boshqa hayvon emas, aynan hamma vaqt vaqti chog‘, o‘yinqaroq bo‘lgan maymun tanganlan. Bunda guli ra’no birikmasiga e’tibor qaratsak, lug‘aviy jihatdan kibrli gul ma’nosini anglatadi. Ra’no arabcha ra’una – bema’ni, ahmoq bo‘lmoq; beparvo bo‘lmoq fe’lidan olingan bo‘lib, xudpisand (egoist), mutakabbir degan ma’noni anglatadi. Eski o‘zbek tilida ham, fors tilida ham xushqomat, go‘zal ma’nosiga o‘tgan .

3. Lisoniy interferensiya va o‘zlashma qatlam

Ikki shoirning til xususiyatlarini qiyoslaganda, ularning leksikasidagi o‘zaro yaqinlik aniq seziladi. Hofiz Xorazmiy o‘zbek tilida ijod qilsa-da, fors-tojik adabiyoti ta’sirida tilga o‘zlashgan arabiy va forschadan kirib kelgan so‘zlarni (bayt, dard, hajr, visol) faol qo‘llaydi. Bu holat ikki tilning o‘zaro sintezi - leksik interferensiya jarayonining jadalligini ko‘rsatadi.

Biroq, Hofiz Sheroziy tili uchun xos bo‘lgan forsiy izofa qurilmalari Hofiz Xorazmiyda turkiy qo‘lyozma qoliplari va qo‘shimchalar (-ning, -da, -din) orqali ifodalanadi. Masalan, Hofiz Sheroziyning forscha birikmalari Xorazmiy tomonidan sof turkiy ekvivalentlar yoki o‘zlashma va o‘z qatlamga oid so‘zlarning o‘ziga xos birikish usullari orqali berilib, turkiy tillarning badiiy salohiyatini namoyon etadi.

Ishq darding jonima solg‘och firoq,

Bilmadi holimni hargiz bir muftoq.

Ushbu misrada “ishq”, “dard”, “firoq” kabi arabiy o‘zlashma so‘zlar Hofiz Xorazmiy tomonidan turkiy sintaktik qurilma (jonima solg‘och) ichiga mahorat bilan singdirilgan. Bu holat XV asr boshlaridayoq turkiy adabiy til fors-tojik adabiyoti bilan yonma-yon holda umumiy ilmiy-falsafiy va lisoniy terminologiyani faol o‘zlashtirganidan dalolat beradi.

4. Ilmiy-nazariy asoslar va manbalar tahlili

Hofiz Sheroziy va Hofiz Xorazmiy ijodi, ularning lisoniy xususiyatlari, shuningdek, forsiy va turkiy adabiy aloqalarini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar mavjud. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar ilmiy-akademik doiralarida bajarilgan aniq dissertatsiyalar va ilmiy ishlar quyidagilardan iborat:

Hamid Sulaymonovning tadqiqotlari va Hofiz Xorazmiy “Devoni”ning ilmiy kashfiyoti:Akademik Hamid Sulaymonov Hofiz Xorazmiyning yagona qo‘lyozma asarini (Haydarobod nusxasini) ilmiy muomalaga kiritib, matn tili va qiyosiy-lisoniy tahlilini amalga oshirdi. Olim ilk bor Hofiz Xorazmiy merosini ilmiy jihatdan o‘rganib, uning tili XV asr boshlaridagi o‘zbek (chig‘atoy) adabiy tili me’yorlarini va fors mumtoz adabiyoti an’analari bilan bog‘liqligini ilmiy asoslab berdi.

R.M.Madaminovaning lingvistik tadqiqotlari:Tadqiqotchi o‘zining “Hofiz Xorazmiy “Devon”i tilida shakldosh leksik birliklar tadqiqi” mavzusidagi ilmiy ishida mazkur shoir lisoniy xususiyatlarini, xususan, asarlaridagi leksik qatlam, shakldosh (omonim, polisemantik) so‘zlarning qo‘llanish doirasini atroflicha ochib bergan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida qiyosiy poetika va lisoniy ta’sir masalalari: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti hamda Respublika Oliy ta’lim muassasalarida prof. A. Hayitmetov va N. Komilovlarning tasavvufiy adabiyot va uning lisoniy-falsafiy terminologiyasiga bag‘ishlangan ishlari muhim o‘rin tutadi. Bu ishlarda Hofiz Sheroziyning markaziy o‘rni va uning turkiy shoirlarga ko‘rsatgan badiiy-tilshunoslik ta’siri tahlil qilingan.

G‘arbiy Yevropa va Sharqshunoslikdagi qiyosiy ilmiy ishlar:Yozef fon Hammer-Purgshtal Hofiz Sheroziy asarlarini nemis tiliga tarjima qilib, uning poetik tili bo‘yicha ilk ilmiy-estetik sharhlarni yozgan bo‘lsa, Iogann Volfgang Gyote (“G‘arbu Sharq devoni”) Hofiz Sheroziy ijodining lisoniy ohangi, vazni va falsafiy qatlamlarini Yevropa she’riyatiga ko‘chirish bo‘yicha nazariy-ijodiy tadqiqot olib borgan.

Xulosa. Hofiz Sheroziy fors mumtoz tilining nafisligi, ko‘p ma’noliligi va musiqiyligini yuksak cho‘qqiga olib chiqqan bo‘lsa, Hofiz Xorazmiy ana shu yuksak poetik standartlarni turkiy (o‘zbek) tiliga muvaffaqiyatli tatbiq etdi. Ularning ijodiy tilidagi mushtarakliklar Sharq adabiy maydonidagi madaniy-ma’rifiy birlikni ko‘rsatsa, o‘ziga xos farqlar har bir tilda poetik tafakkurning o‘ziga xos qonuniyatlari mavjudligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Ikki buyuk shoir poetikasini qiyosiy o‘rganish mumtoz tillarning ichki imkoniyatlarini yanada chuqur anglashga, shuningdek, o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Sulaymonov H. Hofiz Xorazmiyning "Devoni" va uning qiyosiy-lisoniy xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1978.

[2] Hayitmetov A. Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.

[3] Komilov N. Tasavvuf. - Toshkent: Movarounnahr, 2009.

[4] Madaminova R. M. Hofiz Xorazmiy “Devon”i tilida shakldosh leksik birliklar tadqiqi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2021.

[5] Sheroziy H. G‘azallar. Fors tilidan tarjimonlar: Jamol Kamol va boshqalar. - Toshkent: Sharq, 2007.

[6] Hammer-Purgshtal J. von. Geschichte der schönen Redekünste Persiens. - Wien, 1818.

[7] Goethe J. W. von. West-östlicher Divan. - Stuttgart: Cotta, 1819.